



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 27.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



D.M. Ibroximova., M.I. Maxmudova.,
M.A. Ro‘ziboyeva., F.M.To‘xtaboyeva
Andijon davlat universiteti
Uzbekistan

ibroximovadavlatoy@gmail.com

mukadamhonmahmudova303@gmail.com

maftunaruziboyeva753@gmail.com

feruzatoxtaboyeva1971@gmail.com

REKOMBINANT DNK TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA INSULINNI SINTEZ QILISH

Abstract: This thesis provides a detailed overview of the processes involved in insulin synthesis using recombinant DNA technology. The functions of insulin in the body and its importance in the treatment of diabetes are explained. The work discusses the genetic engineering methods for insulin production, the fundamentals of recombinant DNA technology, the stages of using bacterial and yeast cells, and the purification processes in detail.

Keywords: Recombinant DNA technology, Insulin synthesis, Genetic engineering, Diabetes, Cell culture, Escherichia coli, Bioreactor, Protein purification, Biopharmaceuticals, Hormone production.

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi rekombinant DNK texnologiyasi yordamida insulin sintez qilish jarayonlari batafsil yoritilgan. Insulin gormonining organizmdagi vazifalari va uning diabet kasalligini davolashdagi ahamiyati tushuntirilgan. Ishda insulin ishlab chiqarishning genetik muhandislik usullari,

rekombinant DNK texnologiyasining asoslari, bakterial va xamirturush hujayralaridan foydalanish bosqichlari va tozalash jarayonlari batafsil ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Rekombinant DNK texnologiyasi, Insulin sintezi, Genetik muhandislik, diabet, hujayra madaniyati, Escherichia coli, Bioreaktor Protein tozalash, Biofarmatsevtika, Gormon ishlab chiqarish.

Аннотация: В данной работе подробно рассмотрены процессы синтеза инсулина с использованием рекомбинантной ДНК технологии. Объяснены функции гормона инсулина в организме и его значение для лечения диабета. В работе подробно рассмотрены методы генетической инженерии для производства инсулина, основы рекомбинантной ДНК технологии, этапы использования бактериальных и дрожжевых клеток, а также процессы очистки.

Ключевые слова: Рекомбинантная ДНК технология, Синтез инсулина, Генетическая инженерия, диабет, клеточная культура, Escherichia coli, биореактор, очистка белка, биофармацевтика, Производство гормонов.

Language: Uzbek

Citation: Ibrokhimova, D., Makhmudova, M., Ruziboyeva, M., & Tokhtaboyeva, F. (2024). SYNTHESIS OF INSULIN USING RECOMBINANT DNA TECHNOLOGY. Universal International Scientific Journal, 1(9), 183–186. Retrieved from <https://universaljournal.uz/index.php/jurnal/article/view/1387>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14564901>

Rekombinant DNK texnologiyasi zamonaviy biotexnologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu usul yordamida turli biologik dori vositalar, jumladan, insulin sintez qilinadi. Insulin diabet kasalligini davolashda muhim gormon bo‘lib, rekombinant texnologiyalar uni xavfsiz va samarali ishlab chiqarish imkonini beradi.

Rekombinant insulin ishlab chiqarishning tarixiy rivojlanishi. 1921-yilda insulin kashf etilgan, dastlab hayvonlarning (cho‘chqa va sigir) oshqozon osti bezidan olinardi. Biroq bu usul allergik reaksiyalar va cheklangan miqdorda ishlab chiqarish bilan

bog‘liq muammolarni keltirib chiqardi.1978-yilda Genentech kompaniyasi rekombinant DNK texnologiyasi yordamida insulin sintez qilishda birinchi muvaffaqiyatga erishdi.1982-yilda rekombinant insulin tibbiyotda foydalanish uchun tasdiqlandi va savdo markasi Humulin nomi bilan chiqarildi.[1]

Insulinning biologik mohiyati va ahamiyati. Insulinning organizmdagi roli: glyukozaning metabolizmi va qondagi shakar miqdorini tartibga solish.Diabet kasalligi: I va II tip diabetning sabablari va oqibatlari.

Insulin – bu qand miqdorini boshqaruvchi va organizmdagi metabolizm

jarayonlariga ta'sir etadigan gormon. U asosan me'da osti bezi (pancreas) beta hujayralarida ishlab chiqariladi. Insulin yetishmovchiligi, masalan, diabet kasalligi rivojlanishiga olib kelishi mumkin[2].

Rekombinant DNK texnologiyasining asoslari genetik modifikatsiya va genetik materiallarni manipulyatsiya qilish bilan bog'liq bo'lib, bu texnologiya genetik materialni o'zgartirish, bir organizmdan boshqasiga ko'chirish va yangi xususiyatlar yaratish imkonini beradi. Rekombinant DNK texnologiyasining mohiyati va ishlash prinsiplari Insulin genini klonlash va hujayra ichiga kiritish jarayoni[3].

Rekombinant DNK texnologiyasi yordamida insulin sintezi uchun quyidagi asosiy bosqichlar amalga oshiriladi:

a) Insulin genining ajratilishi. Insulinni kodlovchi gen (odatda insulinning alfa va beta zanjirlarini kodlovchi qismlar) odam DNK'sidan ajratib olinadi.

b) Rekombinant vektor yaratilishi. Insulin genini boshqa xujayralarga olib borish uchun, odatda, bakteriogen vektorlar (masalan, plazmidlar) ishlatiladi. Bu vektorlar genni o'z ichiga olib, mikroorganizmlarga kirishi uchun ishlab chiqiladi.

c) Transformatsiya. Rekombinant vektorlar, masalan, *Escherichia coli* (*E. coli*) bakteriyalariga yoki maya xujayralariga

kiritiladi. Bu xujayralar endi insulin sintez qilishga qodir bo'ladi.

d) Insulin ishlab chiqarish. Transformatsiya qilingan xujayralar o'stiriladi, va ular insulin ishlab chiqara boshlaydi. Olingan insulin miqdori va sifatini nazorat qilish uchun turli xil laboratoriya usullari qo'llaniladi.

e) Proteinni tozalash. Ishlab chiqarilgan insulin tozalanadi va fermentativ yoki kimyoviy usullar bilan chiqariladi.

Genetik muhandislik: Inson insulin genini bakteriya (*Escherichia coli*) yoki xamirturush (*Saccharomyces cerevisiae*) hujayrasiga o'rnatish. Hujayra madaniyati: Genetik o'zgartirilgan mikroorganizmlarni bioreaktorda ko'paytirish. Olingan mahsulotni tozalash: Rekombinant insulin molekulalarini ajratib olish va tozalash texnologiyalari[3,4].

Rekombinant insulin ishlab chiqarishning afzalliklari. Tez va samarali ishlab chiqarish: Rekombinant DNK texnologiyasi yordamida insulin ishlab chiqarish jarayoni ancha tez va samarali, chunki mikroorganizmlar tez o'sib, katta miqdorda insulin ishlab chiqarishi mumkin. Yuqori sifat: Ishlab chiqarilgan insulinning sifatini boshqarish va optimallashtirish oson. Jahonda keng tarqalgan qo'llanilishi: Rekombinant insulin, diabetes kasalligi bo'yicha yuqori talabga ega bo'lib, uning

ishlatilishi dunyo bo'ylab kengaygan. Hayvonlardan olingan insulinga nisbatan yuqori xavfsizlik. Insulinning individual muvofiqligi va yuqori tozaligi. Ko'p miqdorda ishlab chiqarish imkoniyati[4].

Sanoat va ijtimoiy ahamiyati. Insulin ishlab chiqarishning diabet bemorlarining hayot sifati va umr davomiyligiga ta'siri. Rekombinant insulin ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniyalar: Novo Nordisk, Sanofi, Eli Lilly[5].

Rekombinant DNK texnologiyasining asosiy bosqichlari:

- DNK fragmentlarini aniqlash va ajratish.
- Vektorlarni tanlash va kiritish (plazmidlar, viruslar).
- Mezbon hujayralarda (bakteriya, xamirturush yoki sutemizuvchilarning hujayralari) ekspressiya.
- Genetik modifikatsiyalarning ahamiyati.

Hayvonlardan olingan insulin bilan solishtirish ,gigiyena ,allergik reaksiyalarning kamayishi,Yetkazib berishning barqarorligi,Iqtisodiy va tibbiy ahamiyat,m uammolar va cheklovlar,texnologiyaning qimmatligi,mutatsiyalar va oqibatlar,kam rivojlangan davlatlarda qo'llanilish imkoniyatlari, kelajakdagi istiqbollarni yaratishdan iborat. Insulinning yangi sintetik shakllari.Nanotexnologiya va insulin etkazib berish usullari (masalan, insulin pompasi yoki nanokapsulalar).Gen terapiyasi yordamida diabetni davolash imkoniyatlarini yaratadi[6].

XULOSA

Rekombinant DNK texnologiyasi yordamida insulin ishlab chiqarish zamonaviy tibbiyotda ulkan yutuq hisoblanadi. Ushbu texnologiya orqali diabet kasalligini samarali nazorat qilish imkoniyati yaratilgan bo'lib, kelajakda boshqa murakkab gormonlarni ham shu usulda ishlab chiqarish ustida izlanishlar davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Watson, J. D., et al. (2007). Recombinant DNA: Genes and Genomes - A Short Course. Cold Spring Harbor Laboratory Press.
2. Lodish, H., et al. (2021). Molecular Cell Biology. W.H. Freeman and Company.
3. Primrose, S. B., & Twyman, R. M. (2013). Principles of Gene Manipulation and Genomics. Wiley-Blackwell.
4. Goeddel, D. V., et al. (1979). "Expression in Escherichia coli of a chemically synthesized gene for human insulin." Proceedings of the National Academy of Sciences, 76(1), 106-110.
5. Walsh, G. (2005). "Biopharmaceutical benchmarks." Nature Biotechnology, 23(3), 255-260.
6. Scheller, J., et al. (2006). "Production of biopharmaceuticals and vaccines in plants." Biotechnology Journal, 1(7-8), 750-768.
7. Mirakbarova, Moxira, et al. "TENEBRIO MOLITOR LICHINKASIDAN OLINGAN YOG'NING MIKROBIOLOGIK TAHLILI." Universal xalqaro ilmiy jurnal 1.2 (2024): 60-66.